

**ODAM SAVDOSI JINOYATI BO'YICHA KRIMINALOGIK
YONDASHGAN HOLDA: UNING SABABLARI, SHART-SHAROITLARI
VA OLDINI OLISH CHORALARI**

To'xtayev Baxodir Panji o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

Tergov faoliyati yo'nalishi, 2-kurs, talabasi

Email: boxodirtxtayev462@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada odam savdosiga jinoyatiga qarshi kurashish, ushbu jinoyatni sodir etish sabablari, shart-sharoitlari, oldini olish choralari xalqaro va milliy darajadagi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ushbu jinoyatni kelgusida sodir etilmasligini oldini olish uchun tafsiyalar yoritiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: shahvoniy ekspluatatsiya, transplantatsiya, retsipyent, inson tana a'zolarini ajratib olish.

**УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ ПОДХОД К ПРЕСТУПЛЕНИЮ
ТОРГОВЛИ ЛЮДЬМИ: ЕЕ ПРИЧИНЫ, УСЛОВИЯ И МЕРЫ
ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ**

Тохтаев Баходир Панджи оглы

Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан

Следственная деятельность, 2 курс, студент

Электронная почта: boxodirtxtayev462@gmail.com

Аннотация: в статье рассматриваются и анализируются вопросы борьбы с преступлением торговли людьми, причины и условия совершения этого преступления, меры профилактики, меры, принимаемые на международном и национальном уровнях, а также рекомендации по предупреждению совершения этого преступления в будущем.

Ключевые слова: сексуальная эксплуатация, трансплантация, реципиент, удаление частей тела человека.

**CRIMINAL APPROACH TO THE CRIME OF HUMAN
TRAFFICKING: ITS CAUSES, CONDITIONS AND PREVENTIVE
MEASURES**

Tokhtayev Bakhodir Panji ugli

Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

Investigative activity, 2nd year, student

Email: boxodirtokhtayev462@gmail.com

Abstract: *this article discusses and analyzes the fight against human trafficking, the causes, conditions, preventive measures, measures taken at the international and national levels, and recommendations to prevent this crime from being committed in the future.*

Keywords: *sexual exploitation, transplantation, recipient, removal of human body parts.*

Bugungi kunda turli-tuman yangiliklar, yangidan-yangi imkoniyatlar, insonlarning yaxshi yashashi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar ko'zni quvontiradi. Lekin bu imkoniyatlardan o'zining g'azar maqsadlari yo'lida foydalanayotgan shaxslar ham uchrab turadi. Buning oqibatida esa turli jinoyatlar, xususan odam savdosi va shunga o'xshash jinoyatlar sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunday jinoyatni amalga oshirish asnosida insonlarning bilmay yomon yo'llarga kirib qolayotganligi hech birimizga sir emas.

Odam savdosi jinoyatiga ta'rif berishda, ushbu jinoyatning sabab va shart-sharoitlarini, oldini olish choralarini o'rganishda xorij tajribasiga yondashgan holda tahlil qilishimiz zarur. Odam savdosi jinoyati nima? Ushbu jinoyatni sodir etilishiga, qanday sabab va omillar mavjud? O'z navbatida esa ushbu jinoyatni sodir etilmasligiga qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim va kelgusida ushbu jinoyatning sodir etilishini oldini olib qolishimiz

mumkin. Ushbu jinoyatlarni ko'rib chiqishda avvalo Xorij tajribasiga batafsil to'xtalib o'tadigan bo'lsak :

Birlashan millatlar tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jozalash haqidagi [Bayonnomasi](#) da quyidagicha ta'rif keltirib o'tilgan, ya'ni :

Odam savdosi — foydalanish maqsadida kuch ishlatish xavfi yoki uni qo'llash yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni yoki qaramlik holatini suiiste'mol qilish yoxud to'lovlar yoki foyda ko'rinishida sotib olish yo'li bilan yoki shaxsni nazorat qiluvchi boshqa shaxsning roziligini olish uchun to'lovlar yoki foyda ko'rinishida sotib olish yo'li bilan insonlarni yollash, tashish, berish, yashirish va odamlarni qo'lga kiritishni anglatadi. Foydalanish kamida boshqa shaxslarning fohishabozligidan foydalanish yoki shahvoniy maqsadlarda foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash urf-odatlarini, tutqunlik holatini yoki inson tana a'zolarini ajratib olishdan iborat bo'ladi deb keltirib o'tilgan. Mazkur konvensiyada shuningdek bu jinoyatning oldini olishga qaratilgan quyidagi choralar keltirib o'tilgan.

Shuningdek mazkur Bayonnomada odam savdosi jinoyatini oldini olishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar keltirib o'tilgan.

1. Ishtirokchi-davlatlar odam savdosining oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan tadqiqotlarni, axborot kompaniyalarini, jumladan, ommaviy axborot vositalarida o'tkazish, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy tashabbuslarni amalga oshirish kabi choralarni ko'rishga intiladilar.

2. Ushbu moddaga muvofiq ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan siyosat, dasturlar va boshqa choralar tegishli hollarda, nohukumat tashkilotlar, boshqa tegishli tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa elementlari bilan hamkorlikni ham o‘z ichiga oladi.

3. Ishtirokchi-davlatlar ikki tomonlama yoki ko‘p tomonlama hamkorlik yo‘li bilan odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalarni odam savdosi nuqtai nazaridan nochor holatga tushib qolishlariga olib keluvchi qashshoqlik, rivojlanishning past darajasi va teng imkoniyatlarning yo‘qligi kabi omillar ta’sirini kamaytirishga qaratilgan choralarni ko‘radilar yoki takomillashtiradilar.

4. Ishtirokchi-davlatlar odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalarni ekspluatatsiya qilishga olib keladigan har qanday shaklda foydalanish odam savdosiga olib kelganligi uchun unga nisbatan bo‘lgan talabni yo‘qotishga qaratilgan ta’lim, ma’daniyat yoki iktimoiy sohada ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qonunchilik yoki tegishli boshqa choralarni ko‘radilar yoki takomillashtiradilar.

Milliy qonunchiligimizda ya’ni O‘zbekiston Respublikasi “Odam savdosiga qarshi kurash to‘g‘risida” gi [Qonunida](#) ta’rif quyidagicha keltirib o‘tilgan:

Odam savdosi — kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud majburlashning boshqa shakllaridan foydalanish, o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste’mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun to‘lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og‘dirib olish yo‘li bilan odamlardan foydalanish maqsadida ularni **yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish**. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki

ulardan shahvoniy foydalanishning o'zga shakllarini, majburiy mehnatni yoki xizmatlarni, qullikni yoxud qullikka o'xshash odatlarni, erksizlik holatini yoxud inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olishni anglatadi deb keltirib o'tilgan shu qonunga asosan oldini olish choralari quyidagilardan iborat:

Odam savdosining oldini olish

Odam savdosining oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

fuqarolarning odam savdosidan jabrlanishining oldini olishga, ularning himoyasiz va xavf ostida qolishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishni;

odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi muammolarni aniqlash va ushbu muammolarning yechimlarini ishlab chiqish maqsadida mazkur sohadagi faoliyatning doimiy monitoringini amalga oshirishni;

odam savdosidan jabrlanganlar tushib qolishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlar haqida, davlat hamda odam savdosidan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish bo'yicha ixtisoslashtirilgan muassasalar tomonidan taqdim etiladigan himoya choralari to'g'risida, odam savdosiga qarshi kurashish uchun davlat tomonidan ko'rilayotgan jinoiy va ma'muriy ta'sir choralari haqida jamiyatning xabardorligini oshirishni;

turistik faoliyatni, shuningdek aholini ish bilan ta'minlashga oid faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatiga doir talablarni belgilashni;

O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim muassasalarida va nodavlat ta'lim tashkilotlarida odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni va amalga oshirishni;

odam savdosiga qarshi kurashishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari xodimlarini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish choralarini ko'rishni.

Odam savdosining oldini olish qonunchilikka muvofiq boshqa chora-tadbirlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. O'z navbatida esa:

[Yollash deganda](#) - ekspluatatsiya qilish maqsadida odamni biror-bir faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

[Tashish deganda](#) - shaxsni olish-sotish bitimi tuziladigan, boshqa shaxsga topshiriladigan joyga yoki undan ekspluatatsiya maqsadida foydalaniladigan joyga yetkazib berish (transportda tashish)ni anglatadi. Bunda yetkazib beriladigan shaxs odam savdosini amalga oshirish uchun mo'ljallanganligi tashuvchiga oldindan ma'lum bo'lishi lozim. Tashish bitta aholi punkti doirasida ham, O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqish bilan bog'liq tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

[Topshirish deganda](#) - odamni boshqa shaxsga ekspluatatsiya qilish maqsadida jismoniy tarzda berishda ifodalanadi.

[Yashirish deganda](#)- jabrlanuvchini hokimiyat vakillaridan, qarindoshlaridan yoki uning taqdiridan manfaatdor boshqa shaxslardan har qanday joyda xufiya saqlashda ifodalanadi.

[Qabul qilish deganda](#) - odamni o'z maqsadlarida ekspluatatsiya qilish uchun egalikka olish (masalan, hadya tariqasida, vaqtincha tekin foydalanish uchun yoki qarz evaziga) ni anglatadi, odamni sotib olish hollari bundan mustasno.

[Transplantatsiya](#) — [retsipiyentda](#) mavjud bo'lmagan yoxud shikastlangan, o'zining muhim hayotiy vazifalarini bajarishga qodir bo'lmagan a'zolari va (yoki)

to'qimalarni tirik donordan yoki inson mурdasidan olingan a'zolarga va (yoki) to'qimalarga jarrohlik amaliyoti yoki muolaja o'tkazish yo'li bilan almashtirish.

Shahvoniy ekspluatatsiya deganda, odamning undan pornografik tasvirlar tayyorlash, buzuv harakatlar sodir etish va h.k. maqsadlarda foydalanish uchun berilishi tushuniladi.

Odam savdosi eng og'ir va insonni tahqirlovchi, mamlakat nufuzini tushiruvchi jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Xavflilik darajasi bo'yicha ushbu jinoyat turi narkotik va noqonuniy qurol savdosidan keyin dunyoda 3-o'rinda turadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bir yilda taxminan 4.5 mln. fuqaro odam savdosidan jabrlanadi. Ularning 80%i yoshlar, ayollar va bolalardir.

Xalqaro darajada ko'radigan bo'lsak ham bu ko'rsatgich ancha yuqori hisoblanadi. Masalan BMT ning statistik ma'lumotlariga ko'ra, odamlar kamida **127** mamlakatdan sotuvga chiqmoqda va ular **137** davlatda **ekspluatatsiya** qilinmoqda. Har yili turli hisob-kitoblarga ko'ra, 20-40 million kishi quldorlikning zamonaviy shakli (odam savdosi) qurboniga aylanadi. Tashvishlanarlisi, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizi ayol va bolalardir. Har yili dunyo bo'yicha 600–800 ming nafar ayol va bolalar aldov yo'li bilan xorijiy mamlakatlarga olib ketilib, sotib yuborilmoqda.

UNODC ijrochi direktori Antonio Mariya Kosta fikricha "ko'pgina hukumatlar hali ham inkor qilishda davom etayotganini" aytdi. Hatto odam savdosi holatlari haqida xabar berish yoki jinoiy javobgarlikka tortishda ham e'tiborsizlik mavjud." Uning ta'kidlashicha, odam savdosi uchun sudlanganlar soni ortib borayotgan bo'lsa-da, BMT NJQB hisoboti bilan qamrab olingan har beshta davlatdan ikkitasi birorta ham sudlanishni qayd etmagan.

Bu kurashda fuqarolik jamiyati tashkilotlari, xususiy sektor va jamoalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xabardorlikni oshirish va bevosita yordam xizmatlarini ko'rsatishdan tortib, siyosiy islohotlarni targ'ib qilish va jabrlanganlar bilan ishlashgacha. Ularning sa'y-harakatlari davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash bilan birgalikda profilaktika tashabbuslarini kuchaytirishi, raqamli xavfsizlik choralarini kuchaytirishi va odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar tayanadigan infratuzilmani [izdan chiqarishi mumkin](#). Odam savdosi jinoyati – nafaqat bir davlatning muammosi, bu – transmilliy jinoyatdir. Bu hudud va chegara tanlamaydi. Jinoyatlarning qaysi bir turi bo'lmasin, bu insoniyat sivilizatsiyasiga ochiqdan-ochiq to'siq bo'lmoqda. Shuning uchun, har bir davlat odam savdosi bo'yicha jinoyatlarga qarshi ayovsiz kurashishi, sud idoralari qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolatni o'rnatishi, jinoyatlarni sudlarda ko'rishda jazo muqarrarlighi prinsipiga qat'iy rioya qilish kerak bo'ladi.

Bu borada huquq tartibot organlari samarali ishlar olib borishyapti. Xususan, odam savdosi va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi ham aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borilmoqda. Shu bilan birga yildan-yilga fuqarolarimizning huquqiy savodxonligi oshib borilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shularning natijasida va yuqoridagi bu jinoyatni oldini olish bo'yicha chora –tadbirlarni amalga oshirish natijasida mazkur jinoyat yildan-yilga mamlakatimizda kamayib bormoqda. Shuningdek, O'zbekistonda odam savdosi o'tgan yilgiga nisbatan 55%ga kamaydi".

Ko'rishimiz mumkinki: [XX](#) asr oxirlariga kelib odam savdosi butun insoniyatga qarshi asosiy tahdidlardan biri bo'lib qoldi. Odamdan ekspluatatsiya maqsadlarida foydalanish bilan bog'liq jinoyatlar oshib borishi tendensiyasi bunday ijtimoiy xavfli qilmishlar oxir-oqibatda jamiyatning demokratik

negizlariga, manfaatlariga tajovuz qilishi bilan birgalikda milliy xavfsizlikka ham tahdid solib kelmoqda.

Odam savdasi jinoyatini oldini olishga qaratilgan mazkur chora – tadbirlarni amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo‘lardi va bu jinoyatning sodir etilishiga imkon yaratib berayotgan omillarni o‘z navbatida yechimini topgan bo‘lardik. Ya’ni:

- **birinchidan**, har bir shaxs o‘ziga e’tiborli va hushyor bo‘lishi zarur. Ya’ni kimlar bilan muloqotga kirishayapti;

- **ikkinchidan**, agarda xorijga chiqayotgan bo‘lsa, har bir shaxs nima maqsadda xorijga chiqayotganligini, nima ishga ketayotganligini, kim bilan ketayotganligiga alohida e’tibor berishi lozim;

- **uchinchidan**, mazkur jinoyatning jabrlanuvchilari yurtimizda ko‘plab turmush o‘rtog‘idan ajralgan beva ayollarni tashkil etadi. Buning natijasida esa mazkur jinoyatning qurboniga aylanib qolishmoqda. Ya’ni har bir ishsiz ayollarga har chorakda yoki har bir oyda yetarlicha qismini ish bilan ta’minlashimiz zarur;

- **to‘rtinchidan**, O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan chiqib ketayotgan har bir ayol kishi hamda yoshlar bilan psixolog va mutaxassislarning alohida e’tibor qaratgan holda gaplashib ko‘rishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki odam savdosi jinoyati jabrlanuvchilari odam savdosi qurboni bo‘lganligini davlatimiz chegarasidan chiqib ketgandan so‘ng tushunib yetadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam odam savdosi jinoyati bo‘yicha ham boshqa turdagi jinoyatni ham sodir etilishiga olib keladigan sabab hamda omillarni avvalo aniqlab olishimiz zarur. Ularni sodir etilishigacha bo‘lgan muamolarni va kamchiliklarni oldini oladigan bo‘lsak bu kabi va boshqa turdagi jinoyatlarning oldi olinadi va kelgusida sodir etilishi kamayadi. G‘arazli maqsadlarni ko‘zlab bu

jiinoyatlarni sodir qilganlar qonun oldida javabgarlikka tortiladi. Odam savdosi jinoyatini sodir etish – kechirib bo‘lmas, eng og‘ir turdagi jinoyatlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT RESURSLARI:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ushbu Konvensiyasini to‘ldiruvchi “Odam savdosi, atniqsa, ayollar va bolalar savdosini oldini olish hamda unga chek qo‘yish va uning uchun jazolash haqida”gi Bayonnoma.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 24.11.2009 yildagi 12-son.
3. <https://kun.uz/75302453>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.06.2024 yildagi 333-son.